

TINCHLIKKA TAHDID: DINIY FANATIZM, EKTREMIZM VA TERRORCHILIKKA QARSHI KURASHISH DAVR TALABI

Mannonov Sarvar Samar o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tarjimonlik fakulteti 1-bosqich 25-07-guruh talabasi

*Ilmiy rahbar: **Axmedov To'lqin Olimjonovich***

Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD).

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.01.2026

Revised: 16.01.2026

Accepted: 17.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*fanatizm, ekstremizm,
xalqaro terrorizm,
fundamentalizm,
aqidaparastlik,
mafкура, radikalizm,
egosentrizm*

Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda jamiyatimiz tinchligiga tahdid solib kelayotgan bir qancha radikal oqimlar, shu jumladan fanatizm, ekstremizm va terrorizm kabi buzg'unchi harakatlarning tub mazmun-mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat barqarorligiga ko'rsatgan salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, bugungi XXI asrda yuz berayotgan bir qancha terrorchilik harakatlari misol tariqasida yoritilib beriladi va bu kabi harakatlarni cheklash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida ham ma'lumotlar berib o'tiladi

Inson ongli mavjudot bo'lib, uni bu hislati qolgan mavjudotlardan ajratib turadi. Unga Alloh tomonidan buyuk in'om – aql va tafakkur ato etilgan. Ana shu aql va tafakkurni kerakli joyda ishlata bilish, ongimizni esa zararli ma'lumotlardan saqlay olish uchun o'zimizda unga qarshi immunitet hosil qila olishimiz kerak. Sir emaski, globallashuv davrida insoniyatga bir qancha faol harakatlar tahdid solib kelmoqda. Bu kabi harakatlarga diniy ekstremizm, terrorizm, radikalizm va fundamentalizmlarni aytishimiz mumkim. Manbalarda keltirilishicha, diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793-1794-yillarda Fransiya

inqilobi davrida iste'molga kirgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan va hukumdorlar tomonidan xalqqa nisbatan zulm oshib ketganda unga qarshi kurash ifodasi sanalgan, ammo bugungi kunda bu so'zlar o'zining ijobiy bo'yoqdorlik xususiyatini butunlay yo'qotgan va zo'ravonlik, qo'rquv, tinch aholi hayotiga tahdid soluvchi noqonuniy harakatlarni anglatuvchi salbiy tushunchaga aylangan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yildan 1980-yilgacha dunyoda 1814 ta terrorchilik harakatlari qayd etilgan. Keyinchalik 1984-yilda 700 ta, 1985-yillarda 800 ta va 1989-yilda 856 ta terroristik guruhlar tomonidan bu kabi aktlar amalga oshirilgan.⁷⁶ Oradan ancha vaqt o'tgan bo'lsada, bu yot g'oya tarafdorlari qilgan buzg'unchiliklarni hali hech kim unutmagan. Oddiygina misol 2001-yil 11-sentyabrni eslaymiz: bundan roppa-rosa 25 yil avval – 2001-yil 11-sentyabrda AQSHning Nyu-York va Vashington shaharlarida ro'y bergan fojia ko'pchilikning yodida. O'shanda mahalliy reyslarda parvoz qilayotgan to'rt aviasamalyotlar terrorchilar tomonidan egallab olinib, Nyu-Yorkdagi mashhur 110 qavatli Jahon savdo markazi (WorldTradeCenter) joylashgan egizak binolar (TwinBuildings) hamda AQSHning Mudofaa Vazirligi binosi -Pentagonga kelib urilgan edi. Nafaqat amerikaliklarni, balki butun dunyo aholisini sarosimaga solgan mudhish voqea natijasida 3 mingdan ortiq inson halok bo'lgan va milliard dollarlar evaziga qurilgan ikki bino butunlay vayron bo'lgan.

Dinning bu oqimlarga bo'lgan munosabati.

Din, xususan islom dini, inson hayoti, tinchlik, adolat va bag'rikenglikni eng oliy qadriyatlar sifatida e'tirof etadi. Shu bois terrorizm, ekstremizm radikalizm va aqidaparastlik kabi tinchlikni buzuvchi va zo'ravonlikka asoslangan hodisalar dinning asl mohiyatiga mutlaqo zid hisoblanadi va din ularni rad etadi. Chunki Qur'oni Karimning "Niso" surasi 29-oyatida "O'zlaringizni (bir-biringizni nohaq) o'ldirmangiz ! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir" yoki "Baqara" surasining 195-oyatida ham "O'z qo'llaringiz (baxilligingiz) bilan o'zlaringizni halokatga tashlamang. (Barcha ishlarni) chiroyli qilingiz. Albatta, chiroyli (ish) qiluvchilarni yaxshi ko'radi", deb nozil etilgan. Ilk islom davrida "shahidlik" deyilganda, Allohning roziligi yo'lida fidoyilik qilgan, iymon-e'tiqodi, unib-o'sgan Vatani ozodligi va mustaqilligini saqlash yo'lida halok bo'lgan kishilarga Alloh tomonidan beriladigan daraja tushunilgan. Bu ulug' darajaga erishgan yurtdoshlarimizga misol qilib Qodir Rahmonov (1961-2004) ni aytishimiz mumkin. Qodir

⁷⁶ Rahimqulov O. , Sharopov J. , Po'latov Y. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash davr talabi. Toshkent. : Toshkent islom universiteti, 2011. 59-b.

Rahmonov 1961-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1990-yilda poytaxtimizning Shayxontohur tumani Ichki ishlar bo'limining (IIB) JQB (Jinoyat qidiruv bo'limi) kichik inspektor lavozimida xizmat qila boshlagan. 2004-yil 29-mart kuni Toshkent shahridagi "Chorsu" bozori hududida joylashgan "Bolalar dunyosi" do'koni yonida noma'lum ayol tomonidan o'z tanasiga joylashtirilgan portlovchi moslamaning harakatga keltirilishi oqibatida og'ir tan jarohati olib, voqea joyida halok bo'lgan. Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 26-apreldagi Farmoniga binoan Qodir Rahmonov vafotidan so'ng "Jasorat" medali bilan mukofotlangan.

Hizbut-Tahrir al-Islomiy

Norasmiy siyosiy lashgan diniy partiya mutaassib oqimlar toifasidan bo'lib, uning maqsadi musulmonlar o'rtasini buzish, turli fitnalarni tarqatishdir. Bu oqim islom dini haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan kishilar, xususan, yoshlar ongiga xalifalikni tiklash g'oyasini singdirib, ularni mana shu amalga oshmas orzu-istaklar yo'lida o'z mollari, kuch-quvvatlari, hatto jonlarini qurbon qilishga targ'ib etadi va buni shahidlik deb baholaydi. Bu partiya 1953-yil Falastinda Taqiyuddin Nobahoniy tomonidan asos solingan. Ayni vaqtda "Hizbut-Tahrir" yetakchilari uchun oddiy a'zolarining taqdiri sariq chaqalik qadr-qimmatga ega bo'lmay, firqa rahbarlari tashkilot faoliyatidan ustomonlik bilan foydalanib kelmoqda. Masalan , 2003-2004-yillarda hizbut-tahrir tomonidan tarqatilgan varaqalarda guruh a'zolarining ko'proq qamoqqa olinishi firqaning asosiy maqsadlaridan biri ekani ko'rsatilgan. Bu oqim tarafdorlari o'z g'oyalarini ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish orqali , bu oqimga jalb etishga urinadilar. Bu kabi "virus"larni tarqalishini oldini olish, yoshlarni bu yo'lga kirmasliklari uchun OAVlarida bir qancha tarmoqlarda cheklov qo'yilgan va foydalanish butunlay to'xtatib qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda tinchligimizga tahdid solib kelayotgan bu kabi harakat va oqimlar global miqyosda muammo bo'lib, aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash va ularda ular uchun immunitet hosil qilish barchamiz uchun eng asosiy masala bo'lib turibdi. Bu borada bu oqim o'chog'i bo'lgan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish borasida BMT tomonidan chora-tadbirlar olib borilmoqda. Obod va farovon yurt taqdiri esa doimo ishongan vorislar qo'lida qolaveradi. Zero, muqaddas Vatan yagonadir, u ham bo'lsa siz-u bizniki. Unga loyiq farzand bo'lish esa har birimiz uchun ham farz, ham qarzdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahimqulov O., Sharopov J., Po'latov Y. Diniy ekstremizm va terrorchilikka qarshi kurash davr talabi. Toshkent. : Toshkent islom universiteti, 2011-y.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent , “Ma'naviyat” . 2016-y.
3. Boboyev J. Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidini men qanday tushunaman . Ilmiy maqola . 2020-y.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O'zbekiston, 1997.

